

XORAZM MADRASALARINING SHAKLLANISH JARAYONI

Tursunova Munira Baxodirovna

Andijon viloyati Baliqchi tumani 17- maktab tarix fani o`qituvchisi

Ganiyeva Oynura Muxammajonovna

Andijon viloyati Baliqchitumani 17- maktab matematika fani o`qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xorazim diyorida vujudga kelgan madrasalarning shakllanishni faoliyati haqida ma`lumotlar berilgan.*

Kalit so`zlar: *Anushteginlar, akademiya, madrasa, vaqf, fiqh, falakiyat.*

Madrasalar paydo bo`lgan X asrgacha, musulmon sharqining yirik shaharlaridagi masjidlarda qonunshunoslar tomonidan fiqh masalalari va boshqa fanlarning dolzarb muammolari bo`yicha ma`ruzalar o`qib kelingan. X asrdan esa kundalik turmushga “tadris”masjidlardagi mashg`ulotlar tuzilishidagi o`zgarishlar bilan bog`liq bo`lgan tushuntirish termini kirib keladi. Tadris turli tortishuvlar bilan bog`liq bo`lib, masjidlar bunday munozaralar uchun noqulay bo`lib qoladi. Qolaversa, yirik olimlar ma`ruzalarini tinglash ishtiyoqida ko`pgina xorijiy mamlakatlardan to`plangan ilm tashnalarini ham masjidlar o`z bag`riga sig`dirolmay qoldi. Natijada, maxsus ilm dargohlari – madrasalar ochish zarurati yuzaga keldi.

Arab tilidagi “madrasa” so`zining o`zbekcha lug`aviy ma`nosi “dars beradigan joy, bilimgo, o`qish joyi” degan ma`nolarni anglatadi.

Abu Bakr Muhammad Narshaxiy “Buxoro tarixi” asarida 937-yilda sodir bo`lgan yong`inda zarar ko`rgan deb, aytib o`tgan Forjak madrasasi dastlabki paydo bo`lgan madrasalardan biridir.

O`rta Osiyoda, shuningdek, Xorazmda dastlabki madrasalar Kat va Gurganjda IX asr oxiri- X asr boshlarida vujudga keladi¹⁷⁶. Xorazmning Kat, Gurganj, Xiva, Xazorasp kabi shaharlari o`sha davrda Sharqning eng yirik iqtisodiy va madaniy markazlaridan sanalgan. Katdagi madrasada Abu Nasr Iroq kabi o`z zamonasining mashhur olimi, astronomi, matematigi mudarrislik qilgan. Abu Rayhon Beruniy Kat madrasasida ustozidan tahsil olib, yetuk olim bo`lib yetishgan.

“Hikmatlar uyining rahnamalaridan bo`lgan xorazmshoh ma`muniylar davrida poytaxt Gurganjda madaniy-ma`rifiy ishlarga e`tibor kuchaygan, ko`plab maktablar, madrasa va qorixonalar quriladi. Ushbu madrasalarda Beruniy, Ibn Sino, Masihiy, Abulxayr Xammor kabi taniqli allomalar talabalarga saboq berganlar.

XI- XIII asrlarda Anushteginiylar sulolasiga mansub xorazmshohlar davrida poytaxt Gurganjning iqtisodiy, siyosiy va madaniy markaz sifatida mavqeyi kuchayadi. Maktab va madrasalar qurilishi kengayib, ilmiy tadqiqot ishlari yanada rivoj topadi.

Yozma manbalarda Anushteginiylar davrida Xorazmda 12 mingdan ziyod masjid, ular qoshida shuncha maktab, 4440 ta madrasa bo`lganligi qayd etiladi. Faqat Gurganjda

madrasalar soni 700 ga yaqin bo`lgan. Xorazmshoh anushteginiylar davrida madrasalarning imomlari va mudarrisleri sulton yoki uning noibi tomonidan tayinlangan.

Madrasai oliyalar islomiy ilmlarning yetuk bilimdonlarini, ulamo, shayxlarni, fiqh-huquqshunoslarni, mudarrislar va davlat xizmatchilarini tayyorlagan. Har bir madrasa qoshida ilmning turli sohalariga doir qo`lyozmalar saqlangan boy kutubxonalarini bo`lgan. Shuningdek, madrasani muvaffaqiyatli tamomlaganlar orasidan Sharqda mashhur bo`lgan olimlar, shoiru adiblar yetishib chiqqan.

Maktab va madrasalarda yoshlarga ma`lum dastur asosida ta`lim va tarbiya berilgan. Ta`lim-tarbiyaning asosiy maqsadi yoshlarga zamonaviy bilim asoslarini o`rgatishga, ularda go`zal axloq-odob va eng yaxshi insoniy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan.

Madrasalarda ichki tartib-intizomga qat`iy amal qilingan. Madrasa nizomini buzgan talaba va xizmatchilar uch marotabagacha ogohlantirilgan, kamchilik yana takrorlansa, bunday shaxslar madrasadan chetlashtirilgan. Lekin bunday ko`ngilsizlik juda kamdan-kam sodir bo`lgan.

Madrasalarning moliyaviy xarajati vaqf daromadi hamda davlat xazinasidan ajratilgan qo`shimcha mablag`i` hisobiga qoplangan, har bir madrasaning o`z vaqf mulki va vaqfnoma hujjati bo`lgan.

Madrasalarda umumnazariy darslar tajribali, bilimli mudarris-allomalar tomonidan olib borilgan. Amaliy mashg`ulotlar alohida muallimlar tomonidan o`tkazilgan: hofiz-qiroat bilan o`qishni, voiz-diniy va`zlarni, imom bo`lsa shariat sunnalari, namoz qoidalarini o`rgatgan. Madrasa dasturidagi darslar ikki guruhga, ya`ni ulumi naqliya (islomiy) va ulumi aqliya (dunyoviy) ilmlarga ajratilgan. Ulumi naqliyada Qur`oni Karim, hadisi sharif, fiqh ilmlari, ularga yozilgan sharhlar o`rgatilgan. Ulumi aqliyada dunyoviy fanlar: falakiyot, riyoziyot, ilmi nujum, al-jabr, kimyo, geometriya, geografiya, tarix, falsafa, adabiyot, mantiq, arab tili grammatikasi, musiqa, xattotlik san`ati, axloq-odob ilmlari o`rgatilgan. Madrasada o`qigan talabalar turkiy tillar bilan birga arab va fors tillarini mukammal bilib olganlar.

Madrasada arab, fors va turkiy allomalarning asarlaridan tashqari qadimgi hind va yunon olimlaridan Klavdiy Ptolomey, Sokrat, Platon, Aristotel va boshqalarning arab tiliga o`girilgan asarlari hamda ularga yozilgan sharhlar darslik sifatida o`qitilgan. Badiiy adabiyotga doir asarlardan Abulqosim Firdavsiy, Forobiy, Sa`diy, Hofiz Sheroziy, Jomiy, Navoiy va Fuzuliy asarlari sevib o`rganilgan.

Shuni alohida qayd qilish lozimki, Urganch va Xiva madrasalarida islomiy va dunyoviy ilmlar sohasida xorazmlik allomalardan tashqari Sharqning turli manlakatlaridan kelgan mashhur olimlar ham mudarrislik qilgan.

XIII asr boshlarida mo`g`ullar bosqini va ularning Movarounnahr va Xorazmda bir yarim asrlik hukmronligi boshqa sohalarida bo`lganidek, ta`lim-tarbiya va ma`naviy hayotga ham salbiy ta`sir ko`rsatdi. Ammo XVI -XVII asrlarga kelib, Xorazmda madaniy hayotning birmuncha jonlanishi seziladi. Xonlik poytaxtining Urganchdan Xivaga ko`chirilishi bilan ma`naviy-ma`rifiy ishlarga e`tibor kuchayib, masjid, madrasalar qurilishi jadallashdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Аминов Х. Қўнғирот сулоласи даврида кутубхоналар // Академик У. Каримов номидаги ёш шарқшунослар илмий конференцияси тезислари. – Тошкент, 2007. – Б. 102-104.
2. Аҳмедов М. Қ. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995